

5. Obidov, J., & Umurqulov, S. (2023). O'zbekiston yashil iqtisodiyot sohasida islohotlarni amalga oshirishda muqobil energiya manbalarining o'rni va ahamiyati. Bulletin of Contemporary Studies, 1(3), 15-18.
6. Boboeva M.Sh. "Ekologik barqarorlikni ta'minlashda xalqaro va milliy tajriba" International scientific journal of Biruni ISSN (E) 2181-2993 Vol. 2, Issue 4. Dec. (2023).

BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDAGI SANOATLASHGAN O'ZBEKISTONDA METROLOGIYA SOHASINI TUBDAN ISLOH QILISH HAMDA BOSIM O'ZGARTKICHLARINI VA O'LCHASH VOSITALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Obidov Jamshidbek G'ayratjon o'g'li, Hamdamov Yusuffjon Mahammadjon o'g'li
jamshidobidov19@gmail.com, yusuffjon.hamdamov@mail.ru
Farg'ona politexnika instituti

Mavzuning dolzarbligi. Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida va bosqichlarida tabiat bilan o'zaro muvozanatda, bir biriga bog'liq ravishda rivojlanib kelgan. Yaqin tarixda boshqa sohalarda o'zaro dunyo xalqlari o'rtasida bo'lgani kabi ekologik sohada ham integratsiyalar muhim ahamiyatga ega. Bizning davrimizda atrof-muhit barqarorligini saqlash, bunda xalqaro hamjamiyat tajribasini o'rganish ayniqsa muhimdir. Atrofmuhit barqarorligining xalqaro usullari - bu tabiiy resurslardan tejamkor foydalanishni ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlash uchun qo'llaniladigan yondashuvlar. Demak, atrof muhit barqarorligini saqlashda xalqaro tajriba nimalarni ko'rsatyapti. O'zbekiston sharoitida bu usullarni qo'llash amaliyoti nechog'liq samara beradi?

Bu yerda metrologik ta'minot birliligini ta'minlashga yo'naltirilgan va davlat tomonidan reglamentlanadigan va nazorat qilinadigan, o'zaro bog'langan va o'zaro kelishilgan umumiy qoidalar, talablar va me'yorlar majmuini qamrab oluvchi qonunlashtiruvchi metrologiya muhim ahamiyatga egadir. Bugun o'lchash vositalarining katta miqdori ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishonchliligini, texnologik va axborot jarayonlarini tekshirish va boshqarish tizimlarining samaradorligini, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni, tibbiy tashxislar to'g'riligini, energetik, transport tizimlari ishlarining xavfsizligini va moddiy boyliklarni hisobga olishni ta'minlagan holda insonlarga xizmat qilmoqda. Metrologik ta'minot doirasiga inson faoliyatining tobora ko'p ob'yektlari jalb etilmoqda, o'lchash vazifalari kengroq va xilma-xil bo'lib bormoqda [1]. O'lchash texnikasi aniqligi, barqarorligi, tez harakat qilishiga qo'yiladigan talablar uzluksiz ortmoqda. Metrologik ta'minot tabiatda amalda bo'lgan qonuniyliklarni ochgan holda atrofda moddiy olamni tavsiflaydi. Hozirgi vaqtda hech bir mutaxassis ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni sifatli tavsiflaydigan aniq Metrologik ta'minotsiz tasavvur qilmaydi. Muammo qanchalik murakkab bo'lsa, uning yechimida Metrologik ta'minot tizimining ahamiyati shunchalik katta.

Bugungi kunda metrologik ta'minot natijalari foydalanilmaydigan inson faoliyati doirasi yo'q. Ishonchli o'lchash axboroti xalq xo'jaligi boshqaruvining barcha darajada iqtisodiyot va tekshiruvning asosi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va usullari. Ishlab chiqarishning turli sohalarini rivojlantirish, tayyorlanayotgan mahsulotlarini sifatini oshirish ularni xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda jahonda sanoatni yangi turdagi zamonaviy o'lchash vositalari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan standartlarni o'rganish va tahlil qilish muhimdir. Hozirgi kunda sanoatning turli tarmoqlarida bosim va sarf o'lchash vositalari keng qo'llanilmoqda. Rivojlangan ishlab chiqarish korxonalarini tomonida ushbu sohada zamonaviy o'lchash o'zgartgichlari qo'llanilgan nazorat vositalari keng qo'llanilmoqda [2]. Ushbu ish zamonaviy bosim va sarf o'lchash o'zgartgichlari va ularning turli sohalarda qo'llash istiqbollari tahlil qilish va tavsiyalar berish maqolaning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

- Bosim va sarf o'lchash vositalarini o'rganish va tahlil qilish;

- Bosim va sarf o'lchash o'zgartgichlarini qiyosiy tahlil qilish;
- Bosim va sarf o'lchash o'zgartgichlarini turli sohalarda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Mavjud o'lchash vositalari va zamonaviy o'lchash o'zgartgichlarining tahlil qilish asosida imkoniyatlarini bayon etish;
- Bosim va sarf o'lchash vositalarini tadqiq qilish va mavjud usullardan istiqbolli usul haqida tavsiyalar tavsiya berish.



1-rasm. Zamonaviy bosim o'zgartgichlari

Natijalar. Ushbu tahlil yakunida quyidagi natijalarga erishildi:

- Bosim o'lchash o'zgartirgichlari va nazorat asboblari qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, usul va vositalarni tanlashda nazorat qilinayotgan ob'yektning ishchi muhiti muhim rol o'ynaydi. Jumladan harorat bosim o'lchash datchiklariga ta'sir qilib, xatolikni sezilarli oshishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Kimyo sanoatida va boshqa sohalarda ushbu o'lchash usuli va o'zgartgichlarini tanlashda kimyoviy reaksiya va moddalarga ta'sirini hisobga olish zarur. Chunki bu jarayonlar o'lchash vositasining korroziyaga uchrashiga olib keladi. Sezgir elementlarini sezuvchanligini kamaytirishi mumkin.
- O'rganilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, datchiklarga bo'lgan talablarini quyidagicha belgilanadi: sanoat uchun - xarakteristikalarining ishonchliligi va barqarorligi, laboratoriya o'lchashlari va oqim o'lchagichlar uchun - bosim o'lchashlarining aniqligi va boshqalar.
- Yana bir muhim parametr - bu bosimni o'zgartirishning bu yoki boshqa prinsipidan foydalanadigan datchiklar narxi. Ko'pgina hollarda, o'zgartgichlarning bir nechta parametrlari talab qilinadi: aniqlik, chiqish xarakteristikalarining barqarorligi, ishonchlilik, chidamlilik, past narx. O'lchash usuli va vositalarini tanlashda ushbu ko'rsatkichlarga e'tibor berish zarur.
- Bosim o'lchash usuli, o'zgartirgichlari va nazorat asboblariidan foydalangan holda sarfni o'lchash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Mamlakatimizda sanoatning turli sohasini rivojlantirish, mahsulotlarini sifatini oshirish ularni xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida zamonaviy bosim o'lchash vositalarini o'rganish, tahlil qilish va respublikamizda joriy qilish maqsadga muvofiq [3].

Xulosa. Xulosa shuki, insonning jamiyatda munosib yashash huquqi, atrof-muhit va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi balansni ta'minlash, fuqarolar va korporativ tarmoqlarning ekologik daxldorligi va mas'uliyatini oshirish, ekologik ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash

bilan jamoatchilik nazorati imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. Bosim nazorat qilish sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida (kimyo, neft-gaz, energiteka va boshqa sohalarda) muhim ko'rsatkichlardan ekanligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu sohalarda bosimni nazorat qilishda turli usullar va o'lchash o'zgartkichlari hamda nazorat vositalarini qo'llash ishlari amalga oshirilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Марков А.В. Концепция систем контроля качества средств измерений абсолютного давления. Век качества №1. 2015.
2. Obidov J. G. (2023). Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 07017). EDP Sciences.
3. Марков А.В. Математическая модель автоматизированной грузопоршневой системы контроля качества датчиков абсолютного давления. Вестник ИргТУ Том 22, №11. 2018.

BOLALAR OZIQLANISHI UCHUN MO'LJALLANGAN YANGI TURDAGI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHDA QOVOQ MEVALARINING AHAMIYATI

*Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna, Musayeva Irodaxon Soxibjon qizi
Central Asian Medical University*

Kirish. Sog'lom ovqatlanish yosh bolaning sog'lom o'sishida muhim shart- sharoitlardan biri hisoblanadi. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarining doim lazzatli, vitaminlarga boy turli xil taomlar iste'mol qilishlari zarur bo'ladi. Shunday ekan, bolalarni sog'lom ovqatlanishi masalasiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi. Bolalar hayotining dastlabki kunlaridan boshlab hamda yoshining katta-kichikligiga qarab ularning iste'mol talablari o'rganilsa va ovqatlanish har bir bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda tashkil etilsa, bu avlodimizning sog'lom o'sishi va rivojlanishiga katta omil bo'ladi. Bolalarni ovqatlanishi organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki uning o'sishi, rivojlanishi va xatto tanasida kechadigan fiziologik jarayonlar natijasida kelib chiqadigan barcha talablarni qoplashi kerak. Qovoq mevalari esa gipoallergen hisoblanadi, ularning bu xossasidan bolalar uchun taomlar tayyorlashda foydalanishga imkon beradi. Bunda tabiiy sabzavotlar, mevalar va rezavor mevalar bilan birga, tabiiy kukunlar ham qo'llaniladi.

Nazariy qism. Farg'ona viloyati aholisining ovqatlanish tartibida uglevodli ratsion ustun bo'lib yo'nalishi, oqsillarni iste'mol qilish darajasi past. Baliq va baliq mahsulotlarini iste'mol qilish tavsiya etilgan me'yorlardan 33,8 % ga, sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilish esa 54,9 % ga, go'sht va go'sht mahsulotlarini esa iste'mol qilish 74,4 % ga past bo'lib qolmoqda. Aholining ovqatlanishida mikronutriyentlarning tanqisligini, jumladan vitaminlar, mikroelementlarning sezilarli darajada yetishmasligi haqida poliz mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi tavsiya etilgan me'yorlardan 78 % ga, meva va rezavorlar mevalarni iste'mol qilish darajasi tavsiya etilgan me'yorlardan 42,5 % ga kamligi kabi holat ham tasdiqlamoqda. Shu bilan birga, mintaqada alkogolsiz ichimliklar iste'mol qilish o'sib borayotganini ta'kidlash mumkin. Ular ayniqsa yosh bolalar va o'smirlar, shuningdek qari yoshdagi odamlar kabi aholi qatlamlari orasida mashhur.

Shu sababli, bugungi kunda zamonaviy oziq-ovqat ishlab chiqarish sharoitida funksional oziq-ovqat mahsulotlari kabi kasalliklarni kelib chiqish va rivojlanish xavfini kamaytiruvchi va inson salomatligiga ijobiy ta'sir etuvchi oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish va assortimentini kengaytirish muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Dunyoning istalgan mamlakatida inson salomatligini saqlash va mustahkamlashning majburiy sharti bu aholini yuqori sifatli zararsiz oziq-ovqat bilan ta'minlashdir. Mamlakatimizda